



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun
“Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovini
tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son va Vazirlar Mahkamasining “Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovida (keyingi o‘rinlarda — tanlov) ishtirok etish maqsadida 7956 ta maktab o‘z terma jamoalarini ro‘yxatdan o‘tkazgani va asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholangani ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tanlovning birinchi (tuman/shahar) bosqichi – 2025-yilning 27-mart, ikkinchi (hududiy) bosqichi – 2025-yilning 25-aprel kunlari o‘tkazilishi belgilab qo‘yilsin.

3. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovini tashkil etish bo‘yicha Respublika tashkiliy qo‘mitasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovining birinchi (tuman/shahar) va ikkinchi (hududiy) bosqichlarini tashkil etish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitalarning namunaviy tarkibi 1a va 1b-ilovalarga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovining birinchi (tuman/shahar) va ikkinchi (hududiy) bosqichlarini o‘tkazish va baholash bo‘yicha yo‘riqnoma 2- va 2a-ilovalarga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovining birinchi (tuman/shahar) bosqichida ishtirok etgan maktablarga belgilangan tartibda asosiy ko‘rsatkich bo‘yicha qo‘yilgan ballarni asoslovchi hujjatlar ro‘yxati (keyinigi o‘rinlarda – yig‘majild) 3-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovining birinchi (tuman/shahar) bosqichini nazorat qilish bo‘yicha hududlarga yuboriladigan mas‘ul xodimlar ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Respublika tashkiliy qo‘mitasi (Sh.Karimov) tanlovning birinchi (tuman/shahar) bosqichi barcha tuman (shahar)larda bir vaqtda tashkil etilishini ta‘minlasin.

5. Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova)ga:

Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev) bilan hamkorlikda har bir tuman va shahar kesimida mas‘ullar, auditoriya rahbarlari va nazoratchilarni belgilash hamda test jarayonlarini shaffof o‘tkazilishini nazorat qilish;

Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) bilan hamkorlikda malakali mutaxassislar hamda ekspertlarni jalb etgan holda 2025-yil 25-martga qadar tanlovning birinchi bosqichi uchun, 5-aprelga qadar hududiy bosqichi uchun nazorat-sinov materiallarini sifatli tayyorlash, tanlov uchun tanlangan nazorat-sinov materiallarini chop etish, zarur nusxalarda ko‘paytirish, maxfiyligi ta‘minlangan holda joylarga yetkazish va to‘g‘ri javoblar orqali markazlashgan holda baholashni tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

6. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (J.Mannonov) nazorat-sinov materiallarini tayyorlash, chop etish, markazlashgan holda baholash ishlarini tashkil etish maqsadida Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) bilan hamda nazorat-sinov materiallarini joylarga va hududiy markazlarga yetkazib berish maqsadida davlat feldyegerlik xizmati bilan shartnomalar tuzsin hamda o‘rnatilgan tartibda davlat xaridlarini amalga oshirsin.

7. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (F.Jamuratova)ga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalarni G‘aznachilik xizmati qo‘mitasidan ro‘yxatdan o‘tkazish va ushbu shartnomalar bo‘yicha to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

8. Mazkur buyruqda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun tuzilgan shartnomalar bo‘yicha sarf-xarajatlar vazirlikning 2025-yilgi markazlashgan tadbirlar bo‘yicha xarajatlar smetasida ushbu maqsadlar uchun rejalashtirilgan mablag‘lar doirasida qoplanishi inobatga olinsin.

9. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov), Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (F.Jamuratova), Psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi direktori (L.Gaynutdinova) tegishliligi bo'yicha xizmat safari hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirib, xizmat safari bilan bog'liq xarajatlarni xodimlarning asosiy ish joyidan to'lab berish choralarini ko'rsin.

10. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga:

a) uch kun muddatda tanlovning ikkinchi (hududiy) bosqichini tashkil qilish bo'yicha Tashkiliy qo'mita tarkibini tasdiqlash;

tanlovda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan maktablar to'g'risidagi yakuniy ma'lumot, ushbu maktablarga belgilangan tartibda asosiy ko'rsatkich bo'yicha qo'yilgan ballar hamda maktablar jamoalari ro'yxati tanlovning birinchi (tuman/shahar) bosqichini tashkil qilish bo'yicha tuzilgan Tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlanishini;

tanlovning birinchi (tuman/shahar) bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritib, hududiy bosqichida ishtirok etadigan maktablar ro'yxatining tanlovning hududiy bosqichini tashkil qilish bo'yicha tuzilgan Tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlanishini nazorat qilish.

b) birinchi bosqich yakunlangach, tanlovning ikkinchi (hududiy) bosqichida ishtirok etadigan maktablar ro'yxati va terma jamoalar tarkibini tasdiqlash;

tanlovning ikkinchi bosqichini yuqori saviyada o'tkazish uchun barcha choralarni ko'rish, tanlov ishtirokchilarini zaruriy jihozlar bilan (ruchka, qog'oz, suv va b.) bilan ta'minlash;

tanlov tashkil etiladigan kunda ishtirokchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida Milliy gvardiya, tez tibbiy yordam xizmati, taqdirlash marosimiga mahalliy hokimlik vakillarini taklif qilish;

ikkinchi bosqich natijalari e'lon qilingandan so'ng, bir kun muddatda tanlov natijalari yuzasidan g'olib jamoalar to'g'risidagi ma'lumotlarning respublika Tashkiliy qo'mitasiga taqdim etish;

tanlovning ikkinchi (hududiy) bosqichiga oid hujjatlarning uch yil muddat saqlanishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

11. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari boshliqlari:

uch kun muddatda tanlovning birinchi (tuman/shahar) bosqichini tashkil qilish bo'yicha Tashkiliy qo'mita tarkibini tasdiqlasin;

bir hafta muddatda Tashkiliy qo'mita tomonidan tanlovda ishtirok etadigan maktablarning yakuniy ro'yxati tuzilishi va belgilangan tartibda asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha vazirlik axborot tizimi orqali, shuningdek, an'anaviy

shaklda taqdim qilingan hujjatlarning baholanishini ta'minlasin hamda tanlovda ishtirok etadigan maktablarning terma jamoalari tarkibini tasdiqlasin;

25-mart sanasiga qadar, tanlovning birinchi (tuman/shahar) bosqichida ishtirok etadigan maktablarga belgilangan tartibda asosiy ko'rsatkich bo'yicha qo'yilgan ballarni asoslovchi hujjatlar yig'majildini 3-ilovadagi ro'yxatga muvofiq shakllantirsin;

tanlovning birinchi (tuman/shahar) va ikkinchi (hududiy) bosqichida ishtirok etadigan o'quvchilarning tanlov o'tkaziladigan joyga xavfsiz kelib-ketishlarini ta'minlasin;

tanlovning birinchi bosqichini yuqori saviyada o'tkazish hamda tanlov ishtirokchilarini zaruriy jihozlar bilan (ruchka, qog'oz, suv va b.) bilan ta'minlash choralari ko'rsin;

tanlov tashkil etiladigan kunda ishtirokchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida Milliy gvardiya, tez tibbiy yordam xizmati, taqdirlash marosimiga mahalliy hokimlik vakillarini taklif qilsin;

birinchi bosqich natijalari e'lon qilingandan so'ng, bir kun muddatda tanlov natijalari yuzasidan g'olib jamoalar to'g'risidagi ma'lumotlarni yuqori turuvchi Tashkiliy qo'mitaga taqdim etsin;

yig'majild va tanlov bayonnomasini belgilangan tartibda uch yil muddatda saqlanishini ta'minlasin.

12. Axborot xizmati (D.Sobirova) tanlov jarayonlarini ommaviy axborot vositalari hamda vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritib borsin.

13. Devonxona (X.Rahimbayeva) bir kun muddatda mazkur buyruqni vazirlikning tegishli tarkibiy bo'linmalari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

14. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirining birinchi o'rinbosari Sh.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2025-yil " 20 "-mart
92-son

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirining
2025-yil " 20 " -martdagi
92-son buyrug'iga
2-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun "Xorijiy tillarni
o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanlovining birinchi (tuman)
bosqichini o'tkazish va baholash bo'yicha
YO'RIQNOMA**

1. Mazkur yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqtidorli o'quvchilar o'rtasida fan olimpiadalarini o'tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to'g'risida" 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanlovini (keyingi o'rinlarda — Tanlov) o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan ishlab chiqilgan.

2. Ushbu yo'riqnoma Tanlovning birinchi (tuman) bosqichida ishtirok etadigan maktablar (keyingi o'rinlarda — maktab) natijalarini baholash va g'oliblarni aniqlash jarayonida qo'llaniladi.

3. Maktablarning asosiy ko'rsatkichlari (50 ball) va maktab terma jamoasining xorijiy tillarni bilish darajasi (50 ball) natijasi umumlashtirilganda eng ko'p ball to'plagan maktab g'olib deb topiladi.

1-§. Asosiy ko'rsatkichlarni baholash

4. Maktabning asosiy ko'rsatkichlari tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlarida tuzilgan tashkiliy qo'mitalar tomonidan baholanadi va tasdiqlanadi.

Bunda, 1-bandda qayd etilgan Nizomning 2-ilovasidagi "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha maktabning asosiy ko'rsatkichlarini baholash mezonlari" bo'yicha ballar qo'yiladi.

5. Maktabning asosiy ko'rsatkichlarini baholash maktab terma jamoasining xorijiy tillarni bilish darajasini aniqlash bo'yicha test sinovlari o'tkaziladigan muddatga qadar yakunlanadi.

**2-§. Maktab terma jamoasining xorijiy tillarni
bilish darajasini aniqlash**

6. Maktab terma jamoasining xorijiy tillarni bilish darajasi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy

markazi (keyingi o‘rinlarda – Baholash markazi) tomonidan har bir fan kesimida bir xil qiyinlik darajasida ishlab chiqilgan nazorat-sinov materiallari vositasida sinovdan o‘tkaziladi.

Sinov materiallari bo‘yicha test jarayonlari davomida va undan keyingi yuzaga kelgan savol va e‘tirozlarga javob berish maqsadida Baholash markazi tomonidan shtab tuziladi. Ushbu shtab appelyatsiya komissiyasi vazifasini bajaradi.

Maktablar sinov jarayonlari yakunlanganidan so‘ng, 24 soat ichida har qanday e‘tirozlari yuzasidan oldindan e‘lon qilingan vositalar yordamida shtabga murojaat qilishlari mumkin.

Bildirilgan e‘tirozlar o‘rinli deb topilgan taqdirda, shtab tomonidan natijalarga o‘zgartirish kiritilishi mumkin.

Test sinovlarida bitta maktab terma jamoasiga kiritilgan o‘quvchilarning yonma-yon o‘tirishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Test sinovlari barcha tuman va shaharlarda bir vaqtda 2025-yil 27-mart kuni soat 11:00 da boshlanadi va bir vaqtda soat 12:30 da yakunlanadi. (umumiy 90 daqiqa vaqt ajratiladi.)

Test jarayonlari boshlanishidan 1 (bir) soat oldin ishtirokchilarga auditoriyaga kirishga ruxsat beriladi. Jarayon boshlanishiga yarim soat qolgandan qadoqlangan sinov materiallari o‘quvchilar ko‘z o‘ngida va ishtirokida ochilib, tarqatilishi boshlanadi. Ushbu vaqtdan e‘tiboran auditoriyaga hech kimning kirishiga ruxsat berilmaydi.

Xorijiy til (ingliz, nemis, fransuz tillari) bilish darajasini aniqlashga qaratilgan test topshiriqlari umumta‘lim maktablarining 7-9-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, topshiriqlar xalqaro ta‘lim standartlari asosida osondan qiyinga tomon tamoyili asosida tayyorlangan 30 ta topshiriqlardan iborat bo‘ladi.

7. Test topshiriqlari quyidagicha tasniflanadi:

lug‘at boyligi bo‘yicha: 10 ta test savollari taqdim etiladi. Savollar qiyinlik darajasi oddiydan murakkabga tomon o‘zgarib borib, ular keng qo‘llaniladigan, o‘rtacha darajada va kamdan-kam qo‘llaniladigan so‘z boyligiga qaratilgan test savollaridan iborat bo‘ladi. Bu bo‘limdagi har bir to‘g‘ri javob 1,4 ball bilan baholanadi;

grammatika bo‘yicha: 10 ta test savollari taqdim etiladi. Savollar qiyinlik darajasi oddiydan murakkabga tomon o‘zgarib borib, ular keng qo‘llaniladigan, o‘rtacha darajada va kamdan-kam qo‘llaniladigan grammatik strukturalardan iborat bo‘ladi. Bu bo‘limdagi har bir to‘g‘ri javob 1,6 ball bilan baholanadi;

o‘qib tushunish bo‘yicha: 10 ta test savollari taqdim etiladi. Savollar qiyinlik darajasi oddiydan murakkabga tomon o‘zgarib borib, umumiyevropa baholash shkalasi (CEFR) bo‘yicha A2 darajadan C1 darajagacha bo‘ladi. Bu bo‘limdagi har bir to‘g‘ri javob 2,0 ball bilan baholanadi;

Umumiy savollar miqdori 30 tani tashkil etib, jami 50 ball bilan baholanadi. ($10 \cdot 1.4 + 10 \cdot 1.6 + 10 \cdot 2.0 = 50$).

Lugʻat boyligi va grammatika yoʻnalishdagi savollarning 2 tasi keng qoʻllaniladigan, 4 tasi oʻrtacha darajada keng qoʻllaniladigan, 4 tasi kamdan-kam qoʻllaniladigan struktura va soʻzlardan iborat boʻladi.

Oʻqib tushunish yoʻnalishdagi savollar CEFR shkalasi boʻyicha 2 ta A, 4 ta B (2 ta B1, 2 ta B2) va 4 ta C darajada boʻladi.

8. Test sinov materiallarini chop etish, test oʻtkaziladigan manzillargacha maxfiyligini taʼminlagan holda yetkazib berish, test jarayonlari yakuniga yetgandan keyin ishtirokchilarning ishlarini markazlashgan holda tekshirish va natijalarni chiqarish Ixtisoslashtirilgan taʼlim muassasalari agentligi huzuridagi Fan olimpiadalari markazi (*keyingi oʻrinlarda – Olimpiada markazi*) tomonidan amalga oshiriladi.

Olimpiada markazi tomonidan taqdim qilingan maʼlumotlar asosida tuman/shahar Tashkiliy qoʻmitalari tomonidan natijalar umumlashtirilib, rasmiylashtiriladi va eʼlon qilinadi.

Bunda, har bir oʻquvchining natijasi alohida olinib, toʻplagan ballari umumlashtiriladi va 5 ga boʻlgan holda oʻrtacha ball chiqarilib, maktab natijasi aniqlanadi. Basharti, tanlovning test sinovlari jarayonida terma jamoa aʼzolaridan ayrimlari maʼlum sabablarga koʻra ishtirok etmagan taqdirda terma jamoa uchun beriladigan ball umumiy ballni 5 ga boʻlish orqali chiqariladi.

9. Test sinovlari yakunlangandan soʻng:

savollar kitobchasi ishtirokchilarning oʻzida qoldiriladi;

toʻgʻri javoblar kaliti keng ommaga eʼlon qilinadi.

Tanlovning birinchi (tuman) bosqichi uchun tanlov bayonnomasi ilovadagi shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Olimpiada markazi tomonidan rasman taqdim qilingan natijalar tanlov bayonnomasini rasmiylashtirish uchun asos hisoblanadi.

3-§. Maktab terma jamoalarini shakllantirish

10. Maktab terma jamoasi tarkibi tuman (shahar) maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Terma jamoa aʼzolarini oʻzgartirishga ruxsat berilmaydi. Oʻquvchilar boshqa maktabga oʻtib ketgan taqdirda (asoslovchi hujjatlar mavjud boʻlsa) tuman (shahar) maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimlari mudiri tomonidan tanlov oʻtkaziladigan kunga kamida oʻn kun qolgunga qadar terma jamoa tarkibiga oʻzgartirish kiritilishi mumkin.

4-§. Auditoriya rahbari va nazoratchilar

11. Tanlov boshlanishidan oldin vazirlik va Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tomonidan mavjud imkoniyat doirasida Prezident, Ijod, Ixtisoslashtirilgan maktablar va boshqa manfaatdor bo'lmagan tashkilotlardan mutaxassisligi xorijiy til bo'lmagan fan o'qituvchilari orasidan xonalarga auditoriya rahbari va nazoratchilari tayinlanadi.

Fan o'qituvchisi o'z mutaxassislik yo'nalishida Tanlov o'tkazilayotgan auditoriyaga rahbar yoki nazoratchi etib tayinlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

12. Auditoriya rahbarlari:

ishtirokchilarga Tanlovning tartib-qoidalarini to'g'risida tushuntirish beradi;

Tanlov boshlanishi va tugash vaqtini e'lon qiladi hamda Tanlov jarayonini nazorat qiladi;

Tanlov jarayonida o'rnatilgan tartib-qoidalarga amal qilmagan o'quvchilarni Tanlovdan dalolatnoma tuzib chetlashtiradi;

ishtirokchilarning bajargan ishlarini yig'ib, ularning ko'z o'ngida qadoqlaydi;

qadoqlangan ishlarni maxfiylikni ta'minlangan holda Olimpiada markaziga jo'natib yuborilishini nazorat qiladi.

13. Auditoriya nazoratchilari Tanlov o'tkazilayotgan va o'zlari biriktirilgan auditoriyada tartib saqlanishini ta'minlaydilar va auditoriya rahbariga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda ko'maklashadilar.

14. Tanlov o'tkaziladigan auditoriyalar videokuzatuv kameralari bilan jihozlanadi hamda jarayonlar ota-onalar va keng jamoatchilik uchun "youtube" platformasi orqali to'liq onlayn translyatsiya qilinadi.

15. Tanlov o'tkazilayotgan jarayonda ishtirokchilarning o'zaro gaplashishi, aloqa vositalari va turli xil qo'shimcha manbalardan foydalanishi taqiqlanadi.

Bunday holatlar uchun ishtirokchi Tanlovdan chetlashtiriladi, bajargan ishlari tekshirilmaydi va baholanmaydi.

5-§. Maktab natijalarini umumlashtirish va g'oliblarni aniqlash

16. Tanlovining birinchi (tuman) bosqichi uchun tanlov bayonnomasi rasmiylashtiriladi.

Maktablarning asosiy ko'rsatkichlari (50 ballgacha), maktab terma jamoasining xorijiy tillarni bilish darajasi (50 ballgacha) hamda tanlov natijasida to'plangan umumiy ball (jami 100 ball) tanlov bayonnomasida aks ettiriladi.

Umumiy ball natijalariga ko'ra, maktablar orasidan ballar ketma-ketligida 3 nafar g'olib (1-, 2-, 3-o'rinlar) aniqlanadi va tashkiliy qo'mita bayoni bilan tasdiqlanadi.

Birinchi o'rinni egallagan g'olib tanlovning ikkinchi bosqichida ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.

17. G'oliblarni aniqlash jarayonida ballar teng kelib qolganda, maktab terma jamoasining test sinovlari natijalariga ko'ra natijalari yuqori bo'lgan maktab ustuvorlikka ega bo'ladi.

Ushbu maktablar terma jamoalarining test sinovlari natijalari bo'yicha ballari ham teng bo'lganda test topshiriqlarining "o'qib tushunish" bo'limida eng yaxshi natija ko'rsatgan maktab ustuvorlikka ega bo'ladi.

Ushbu maktablarning test topshiriqlarining "o'qib tushunish" bo'limidagi natijalari ham bir xil bo'lganda "grammatika" bo'limida eng yaxshi natija ko'rsatgan maktab ustuvorlikka ega bo'ladi.

Har bir bosqichda g'oliblikka da'vogar jamoalarning ballari teng bo'lib qolgan taqdirda, jamoalar o'rtasida qo'shimcha sinov tashkil etiladi.

18. Tashkiliy qo'mita tanlov yakunida tanlov g'olibi deb topilgan maktablarning asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlari haqqoniyligini qayta tekshiradi. Soxta yoki noto'g'ri ma'lumotlar kiritilganligi aniqlanganda, o'sha ko'rsatkich bo'yicha ballar inobatga olinmaydi.

6-§. Yakuniy qoidalar

19. Tanlovga xorijiy tillarga ixtisoslashgan yoki xususiy maktablar jalb etilmaydi. Bunday maktablarning tanlovda ishtirok etish holati aniqlanganda ular tanlovdan chetlatiladi.

20. Tanlovga oid barcha hujjatlar tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limida uch yil muddat saqlanadi.